ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6/2-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24559693

Talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish

Maxmudova Fotima Shamshidinovna –
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsent v.b,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mahmudovaf79@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-5575-1192

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. “Madaniy kompetensiya” tushunchasi bo‘lajak mutaxassisning umumiy madaniyati, nutq va muloqot madaniyati, axloqiy-estetik madaniyati hamda milliy va jahon madaniyatini bilishi bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida tahlil qilingan. Madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quv fanlari mazmunining, madaniy-ma’rifiy tadbirlarning, muzey, teatr va kutubxonalar bilan hamkorlikning hamda talabalar to‘garaklari faoliyatining o‘rni ko‘rsatib berilgan. Interfaol metodlar, keys-stadi, loyihaviy ta’lim va raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi asoslangan. Talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar va amaliy tavsiyalar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy kompetensiya, talaba, oliy ta’lim, umumiy madaniyat, muloqot madaniyati, milliy madaniyat, madaniy-ma’rifiy faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik shart-sharoit, interfaol metodlar.*

Развитие культурных компетенций студентов

Аннотация. *В статье раскрываются теоретические и практические аспекты развития культурных компетенций студентов высших учебных заведений. Понятие «культурная компетенция» анализируется как интегративное качество будущего специалиста, связанное с его общей культурой, культурой речи и общения, нравственно-эстетической культурой, а также знанием национальной и мировой культуры. Показана роль содержания учебных дисциплин, культурно-просветительских мероприятий, сотрудничества с музеями, театрами и библиотеками, а также деятельности студенческих кружков в развитии культурных компетенций. Обоснована эффективность применения интерактивных методов, кейс-стади, проектного обучения и цифровых ресурсов. Предложены педагогические условия и практические рекомендации, направленные на развитие культурных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *культурная компетенция, студент, высшее образование, общая культура, культура общения, национальная культура, культурно-просветительская деятельность, компетентностный подход, педагогические условия, интерактивные методы.*

Developing Students' Cultural Competencies

Annotation. *This article covers the theoretical and practical sides of developing the cultural competences of university students. It treats "cultural competence" as an integrative quality of a future specialist. This quality draws together general culture, the culture of speech and communication, moral and aesthetic culture, and knowledge of national and world culture. The article shows how cultural competences are developed through the content of academic subjects, cultural and educational events, cooperation with museums, theatres and libraries, and student clubs. It makes the case for using interactive methods, case studies, project-based learning and digital resources. It proposes pedagogical conditions and practical recommendations for developing students' cultural competences.*

Keywords: *cultural competence, student, higher education, general culture, communication culture, national culture, cultural and educational activities, competence-based approach, pedagogical conditions, interactive methods.*

KIRISH

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarning qismi hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya» komponentlariga batafsil to‘xtalib o‘tish zarur hisoblanadi. Olimlar mazkur tashkil etuvchini ma’lumotni kommunikatsiya jarayoni maqsadlari va sharoitlariga mos (muloqot vaziyatlari, muloqot sheriklarining intilishlari va ijtimoiy rollari va boshqalar) ni ifodalashning ijtimoiy madaniyatni shakli va usullarining to‘g‘ri tanlovini amalga oshirish sifatida ta’riflaydilar.

Tadqiqotchi olimlar shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar uchun umumiy asosiy bilimlar mavjudligini ta’kidlaydilar, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- madaniy va tarixiy meros;
- zamonaviy jamiyatning aksiologik tizimni qamrab oluvchi uning madaniyati, u quyidagilarga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi.
- kommunikatlarning ma’lum ijtimoiy, siyosiy, diniy va boshqa hamjamiyatlarga munosibliklari va ularga munosabatlari.
- madaniyatlararo kommunikatsiyada o‘zaro munosabat ijtimoiy qoidalari va me’yorlari[12].

Ijtimoiy-shaxsiy darajada talabaning individual sifatlari rivojlanishida uning jamiyat bilan o‘zaro munosabati, ijtimoiy muhitning o‘zgarishi ham nazarda tutiladi. Buning uchun oliy ta’lim jarayonida kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Ijtimoiy-madaniy loyihalar va ijtimoiy-madaniy amaliyotlar talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan bir deb hisoblaymiz. Akademik harakatchanlik, intellektual va kasbiy rivojlanishning murakkab va ko‘p qirrali jarayoni talabalarni turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, ularni milliy va xorijiy madaniyat nuqtai nazaridan baholashga xizmat qiladi[7].

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning madaniyatlararo sezgirligini shakllantirish, turli ijtimoiy, etnik va madaniy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash hamda muloqotning xilma-xil shakl va usullarida samarali ishtirok etish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaning kommunikativ tarkibi ikki asosiy nuqtai nazardan talqin etiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalar bilan birgalikda, bu kompetensiya muloqot vaziyatlarini, so‘zlashuvchilarning ijtimoiy rollarini va kommunikativ vazifalarini hisobga olgan holda turli shakllardagi nutqiy bilim va ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi;

2. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida, unda turli ijtimoiy guruhlar va avlodlarga xos bo‘lgan lisoniy xususiyatlarni to‘g‘ri qo‘llash masalasi muhim o‘rin egallaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishdan ko‘zlangan maqsad – talabalarda madaniyatlararo muloqot jarayonida milliy va madaniy xususiyatlarni inobatga olish, muomala madaniyatini rivojlantirish hamda ko‘pmadaniyatli muhitda samarali o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir[8].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari – bu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, ya’ni u qanday sharoitda, qanday yondashuvlar bilan, qanday yo‘nalishlarda samarali shakllanishini ifodalaydi. Bu xususiyatlar tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda, tashkil etishda va baholashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Quyida talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

Kompleks va integrallikka asoslanadi. Bu kompetensiyalar bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvor elementlarini birlashtiradi. Turli fanlar (“O‘zbekistonning eng yangi tarixi”, “Bolalar adabiyoti”, “Falsafa”) va faoliyatlar (madaniy tadbirlar, jamoaviy loyihalar) integratsiyasi talab etiladi.

Amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘langan. Faqat nazariy bilimlar emas, balki real hayotiy vaziyatlarda harakat qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Talabalar madaniy va ijtimoiy tadbirlarda, aksiyalarda, ko‘ngillilik faoliyatida ishtirok etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Har bir talabaning ijtimoiy tajribasi, shaxsiy qadriyatlari, madaniy darajasi inobatga olinadi. Rivojlanish sur’ati va yo‘nalishlari talabaga moslashtiriladi.

Muloqot va madaniyatlararo aloqa asosida rivojlanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning asosi – bu samarali muloqot, madaniy sezgirlik va tolerantlik hisoblanadi. Turli millat, din va madaniyat vakillari bilan interaktiv muloqot sharoitida shakllanadi.

Qadriy yondashuv asosida olib boriladi. O‘zbekiston milliy qadriyatlari, umumiy insoniy qadriyatlar (adolat, hurmat, vatanparvarlik) asosida tarbiyalanadi. Ma’naviyat va ma’rifat bilan uzviy bog‘liq.

O‘z-o‘zini anglash va refleksiyani talab qiladi. Talaba o‘z fikri, xatti-harakati, pozitsiyasini tahlil qilishi va o‘z-o‘zini baholashi kerak bo‘ladi. Reflektiv yondashuv orqali shaxsiy pozitsiya shakllanadi.

Ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi. Bu kompetensiyalar shunchaki bilim emas, balki ijtimoiy mas’uliyatli, fuqarolik ongiga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar jamiyat hayotida ishtirok etishga tayyor bo‘ladi (faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, murosaga kelish qobiliyati)[6].

Talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidagi bilimlarni egallash va ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali ijtimoiy-madaniy kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, uning egallanishi madaniyatlararo muloqot vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim shart hisoblanadi. Madaniyatshunoslik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida bir nechta yo‘nalish ajratiladi: O‘rganilayotgan materialdagi madaniy ma’lumotni tushunish va uning chuqur mazmunini anglashga yo‘naltirilgan bilimlar. Bu bilimlar talabalarning xalq ruhi, milliy xarakter, tili, madaniyati va qadriyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi hamda milliy madaniyatning boshqa madaniyatlardan farqlanish xususiyatlarini tushunishga yordam beradi;

Madaniy yo‘naltirilgan ta’limda shakllanadigan malakalar: tarixiy-madaniy xususiyatlarni bilish, o‘rganilayotgan tilda madaniy axborotni izlash va tushunish, matnlarni tahlil qilish hamda milliy madaniyatning asosiy janrlari va uslublariga oid mazmunni yaratish;

Madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Shu bilan birga, xorijiy madaniyatni o‘rganish qadim davrlardan buyon ta’limning ajralmas qismi bo‘lib kelgan, bugungi kunda esa bu jarayonni madaniyatshunoslik tahlilisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Madaniyatshunoslik talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. R. Tillayeva o‘z tadqiqotlarida asosan yuqori sinf o‘quvchilarida madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni anglash, turli xalqlarning tarixi, madaniyati va milliy o‘ziga xos jihatlari bilan tanishish, shuningdek, ushbu bilimlardan foydalanib ko‘pmadaniyatli muhitda samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Albatta bu yosh tafovuti va masalaga nazariy qarashlarda xronologik kesishuvlarni yuzaga keltiradi, ammo mazmun va mexanizm jihatidan metodik hamohanglikda egadir. Bu jarayonda “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” faniga asoslangan bilimlarni kengaytirish, amaliy faoliyatga integratsiyalash va tanlangan kasb xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalarning ijtimoiy-madaniy tajribasini boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarbiya o‘rganilayotgan mamlakat aholisining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy madaniyati va tabiati bilan tanishtirib borish murakkab integral jarayon hisoblanib, bunda talaba nafaqat o‘rganilayotgan mamlakat, balki o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt urf-odatlari, milliy madaniyatini xam qiyoslab o‘rganadi. O‘zaro muloqot jarayonida muntazam duch kelinadigan milliy-madaniy xususiyatlarni bilmaslik muomaladan kulay vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umuminsoniy qadriyatlarini anglash muloqot davomida fikri va his tuyg‘ularini tushunishga xizmat qiladi. Masalan, bizning sharqona madaniyatimizda odatda salomlashish vaqtida suhbatdoshidan: sog‘ligingiz yaxshimi?, bolalaringiz yaxshimi?, qayerga ketyapsiz?, ovqatlanganmisiz?, qancha maosh olasiz?- degan savollar beriladi Bu savollar suhbatdosh bilan samimiy munosabatlar uchun mo‘ljallangan. Biroq, xuddi shunday savollar g‘arbliklar uchun xijolat va noqulaylikdan boshqa narsa emas va hattoki bunday savollar ularning jahlini chiqarishi mumkin. Shuni yodda tutishimiz kerakki, g‘arbliklar o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni maxfiyligini saqlashadi. Aksincha, odatda, ular ertalab, yaxshi kun, ob-havo va hokazolar haqida gaplashib, bir-birlari bilan salomlashadi[5]. Qadriyatlar interpretatsiyasi turli millat suhbatdoshlarning doimiy muammosi sifatida ko‘riladi. Chunki muloqotning samaradorligi faqat tarbiya umuminsoniy qadriyatlar interpretatsiyasi orqali fikri va his tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatiladi. Talabalarning fikri va his tuyg‘ulariga muloqot davomida umuminsoniy qadriyatlar interpretatsiyasi orqali ta’sir ko‘rsatishida umuminsoniy qadriyatlarning ikki tomon uchun xam (suhbatdoshlar uchun) eng ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy mezonlarni bilishi hamda ushbu mezonlarga muloqot davomida amal qilishi tushuniladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya talabalarning madaniy jihatdan ahamiyatli ma’lumotlarni tushunish va tahlil qilish, ijtimoiy-madaniy ziddiyatlarni anglash va ularning yechimlarini topa olish, turli madaniy kontekstlarda bag‘rikenglik va hamkorlik ko‘nikmalarini namoyon etish, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlarning xatti-harakat va qadriyatlarini to‘g‘ri anglay olish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning mohiyati umuminsoniy va milliy madaniyatga nisbatan sabab-qadriyatli munosabatdan iborat bo‘lib, ularning vazifasi boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan muayyan vositalari yordamidagi muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishni bilishdan iborat.

Tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar tashkil etuvchilari to‘g‘risidagi masalani o‘rganish uning komponentlari sifatida kognitiv, mazmunli, faoliyatli, strategik va affektiv kabilar ekanligini ta’kidlash imkonini berdi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning mohiyati umuminsoniy va milliy madaniyatga nisbatan sabab-qadriyatli munosabatdan iborat bo‘lib, mazkur kompetensiyalarning vazifasi esa boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan muayyan til vositalari yordamidagi muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishni bilishdan iborat. Madaniy ahamiyatini bashorat qiluvchi

sabab-qadriyatli munosabatlarning va validlik o‘rganishga qo‘yiladigan talablarning vaziyatga moslashuvchanligini ta’minlash bo‘yicha aytish lozimki, validlik – “Kompetensiyalar”da ko‘rib chiqiladigan konseptual tushuncha sifatida qaraladi va qaralayotgan narsa yoki holatning obyektiv tashqi mezonlarga mos kelishi ko‘zda tutiladi. O‘z o‘rnida ushbu monografiyada ham bashoratlovchi sabab-qadriyatli munosabatlarning validligi sifatida mana shu munosabatlar va ulardan ko‘zda tutilgan natijalarning obyektiv tashqi mezonlarga muvofiqligi qaralgan[10].

Tarbiya fanini o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarda rivojlanishi kerak bo‘lgan ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi malakalar ya’ni, deskriptorlar to‘g‘risidagi masalani hal etishga o‘tish imkonini berdi. Deskriptorlar ifodalanishida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning komponentlari tahlili natijalaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Ijtimoiy-madaniy xususiyatdagi deskriptorlar

Deskriptorlar	Ijtimoiy-madaniy xususiyatlar
Ekvivalentlik	Talabalarning o‘z madaniyati va boshqa xalqlar madaniyati o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglash, taqqoslash va moslashtirish ko‘nikmalari.
Universallik	Turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda hamkorlik va muloqotni samarali tashkil etish, madaniyatlararo muhitdagi xulq va qadriyatlarni to‘g‘ri anglash hamda ularga moslashish qobiliyati.
Umumiylik	Talabalarning dunyoqarashidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha bilim va tushunchalari.
Madaniy ko‘nikmalar	Madaniyatga oid ma’lumotlarni anglash, yetkazish, madaniy qadriyatlarga asoslangan muloqot va hamkorlik faoliyatida ishtirok etish qobiliyatlari.
Autentiklik	Turli madaniy an’ana va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, madaniyatlararo to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etish, boshqa xalqlar tarixi va madaniy merosini o‘rganish, shuningdek, o‘z madaniyatini samarali tarzda namoyon qila olish ko‘nikmalari.

Deskriptor – bu talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida har bir bosqichda erishilishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar tavsifi bo‘lib, ushbu ko‘nikmalarni turli ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda samarali qo‘llashni ifodalaydi. O‘tkazilgan tadqiqot asosida qabul qilingan “ijtimoiy-madaniy kompetensiya” tushunchasining mazmunini, uni tashkil etuvchi komponentlari tavsiflarini belgilash, shuningdek “ijtimoiy-madaniy kompetensiya” hodisasini aks ettiruvchi deskriptorlar ro‘yxatini tuzish va ifodalash, bakalavriat bosqichida «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanini o‘zlashtirayotgan nofilologik oliy ta’lim tashkiloti talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini bajarish hamda olingan ma’lumotlardan Monografiyaning asosiy muammosi – bo‘lajak bakalavr-nofilologlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirish imkonini berdi.

XULOSA

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha talabalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatishi, madaniy va ijtimoiy normalarga amal qilishi, muloqot va hamkorlik jarayonida xushmuomalalik va tolerantlikni ongli tarzda namoyon etishini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu kompetensiya tarkibida nafaqat mintaqaviy va milliy kontekstga oid bilimlar, balki turli madaniy an’ana va qadriyatlarga hurmat asosida shakllangan ijtimoiy tajribalar ham mujassamdir. Muloqot qilish miqyosida ishlaydigan asosiy tushunchalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muloqotga kirish qobiliyat, ijtimoiy

maqomni hisobga olish qobiliyati, ijtimoiy-madaniy me'yorlarni qo'llash qobiliyati, ko'z bilan aloqa o'rnatish va saqlash, e'tiborni jalb qilish yoki fikr bildirish vositalarini tushunish va qo'llash qobiliyati, mahalliy madaniyat(lar)ning diqqatga sazovor joylari haqidagi bilimlarni qo'llash qobiliyati: faktlar va jamiyatning asosiy muammolari, qisqartmalar, texnik vositalar haqidagi bilimlarni hisobga olish. Bakalavriat bosqichida «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanini o'zlashtirayotgan nofilologik da talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abulgazinova D.D., Kurmanayeva D.K. The effectiveness of local culture-based materials in foreign language teaching // Pedagogical Science. – 2022. – No. 1 (113). – P. 18–25.

2. Абдуллаев А., Инатов А. Таълим жараёнини ривожлантиришда тизимли ёндашувнинг аҳамияти // Замонавий таълим / Современное образование. – 2014. – № 9. – Б. 9–13.

3. Алимов Ф.Ш. Технологик ёндашув ва психологик омиллар асосида ёзма нутқ компетенциясини шакллантириш // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2017. – № 1 (34). – Б. 49–51.

4. Соловьева О.В., Шматова Е.П. Изучение морального самосознания студентов педагогического вуза // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 3.

5. Yuldasheva N.A., Qudratova Sh.B. Creative kompetentsiyalarini the role of innovative technologies in formation of primary school teachers // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, No. 7 (Special Issue). – P. 706–709.

6. Juraeva M.M., Khamidova M.Kh. Linguoculture and linguocultureme // Scientific Reports of Bukhara State University. – 2019. – Vol. 3, No. 4 (76). – Article 6.

7. Maxmudova F.Sh., Normurodov Sh.Z. Maktab va maktabgacha ta'limda milliy tarbiya va qadriyatlar // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, No. 7 (Special Issue). – B. 452–454.

8. Akhmedova M.M., Makhmudova F. Methods of formation of speech skills in primary education teachers // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Vol. 1, No. 5. – P. 193–199.

9. Makhmudova F. Mediasavodxonlik va uning ahamiyati MMIT. –2023. –B. 232–233.

10. Qudratova Sh.B., Atenov J.D., Normurodov Sh.Z. Boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasi fanining umumiy asoslari, predmeti va vazifalari // Inter Education & Global Study. – 2025. – № 2. – B. 142–153.

11. Qudratova Sh.B., Kuziyev A.A. STEAM texnologiyalari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, No. 7 (Special Issue). – B. 494–497.

12. Qudratova F.T. Zamonaviy pedagoglarning innovatsion kasbiy faoliyatini takomillashtirish // Science and Education. – 2023. – Vol. 4, No. 8. – B. 234–238.